



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



“MING BIR KECHA” ASARINING SHARQ VA G'ARB ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI XUSUSIDA

Vahidova Mushtariy

*Toshkent shahar 300 IDU maktabi ingliz tili
fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Tarix sahifalarini o'rganadigan bo'lsak, jahon adabiyotshunoslik sohasida yaratilgan noyob asarlar doim ham ma'naviy hayotni tasvirlanishi hamda madaniyatning shakllanishini bilan turlicha ko'rinishdagi o'zgarib berovergan. Sharq va G'arb adabiyotshunosligidagi asarlarda zamon hamda makonning ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni vaqt o'tishi bilan Sharqda vujudga kelgan asarning G'arb adabiyotshunosligida biron asarning yaratilishi uchun qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, aksincha holatni ham aytishimiz mumkin bo'ladi. Bu kabi o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjud bo'lgan ko'pgina asarlarni aytishimiz mumkin, xususan fikrimni isboti sifatida: Abulqosim Firdavsiyning mashhur “Shohnoma”si, Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning (1184-1292) ahloqqa oid asarlaridan “Guliston” asarini, Yusuf Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” dostonini, Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “Daft ‘Xiradnomai Iskandariy” dostoni, Ispan-arab adabiyoti tarixida alohida urin egallagan. Ibn Xazmning “Toukal-hamma” falsafiy risolasini, Manuelning “Graf Lukanor” asari, Dantening “Yangi hayot” she'rlar to'plami, Iogann Volfgan Gyotening (1749-1832) “Faust” va “G'arbu Sharq devoni” asarlari, P.Alfonsning “Kliriklarga nasihat” asarini, singari asarlarni keltirib o'tishimiz o'rinlidir.

Ushbu keltirilgan asarlarda o'zaro o'xshashlik yoki bir-birini to'ldiruvchi asarlar sifatida ham aytishimiz mumkin bo'lib, ular bir-biri bilan quyidagicha bog'liqlik jihatlari mavjuddir:

- asardagi badiiy tasvir yoki badiiy obrazlarning gavdalanishi, badiiy syujetning ta'siri jihatlari;
- asardagi adabiy aloqalarning namoyon bo'lishida, ya'ni Sharq va G'arb adabiyotining asarlarga ko'chishi;
- asardagi janrlarning bir-biriga o'xshashligi yoki she'riy vaznlarning qiyosiy jihatlari;
- asarlardagi qahromonlarning bir shaxsga bag'ishlanganligi bilan yoki bir asarning ta'sirida ikkinchi asarda ham badiiy obrazning bir xilligi;

Shuningdek, Sharq adabiyotining G'arb isaviya mamlakatlarida tarqalishida yahudiylar, ayniqsa isaviya diniga o'tgan yahudiylar ancha xizmat qilgan. Isaviya diniga utgan yahudiy Ioann Kapuani “Kalila va Dimna”ni XIII asrda eski ispan tiliga agdargan. Isaviya dinini qabul qilib, Pedro Alfons ismini olgan yahudiy hikoyatlari “Kliriklarga nasihat” aslida arab tilida yozilib, muallif uni keyinchalik lotin tiliga tarjima qilgan. Bu asar G'arb tillariga tarjima qilinib, keng tarqaladi. Bu ertaklarning elementlari Xuan Manuel asarlari, Servantesning “Don Kixot”, Bokkachoning “Dekameron”, Rablening “Gargantuya va Pantagryuel”, Margarita Navarrskayaning “Geptameron” kabi asarlariga ham o'tadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



XIII asr oxirlarida Italiyada muallif nomisiz “Novellino yoki yuzta qadimiy hikoyalar” tuplami paydo buldi. Tuplamga jamlangan yuz hikoyaning mazmuni turlicha, lekin Sharq hikoyatlari ham kiritilgan. Bu hikoyatlarda Alfons hikoyatlarining ta'siri kuchli ekani seziladi. Ularda qissa, qiziqarli voqealar tasvirlanib, nasihatimiz xulosalar chiqariladi. Xuddi ana shu “Novellino” ta'siri ostida Bokkachcho nomini jahonga taratgan “Dekameron” yaratilgan edi.

XIII asrda “Sinbodnoma”, “Ming bir kecha”dan Dindistonga aloqador hikoyatlar to'plami, Budda hyotiga bog'liq bo'lgan “Varlaam va Iosafat” asarlari, maqomalar to'plamlari lotin va ispan tillariga tarjima qiladi. Bu tarjimalar Evropa mamlakatlari, ayniqsa, fransuz va italyan adabiyoti uchun izzatli o'tib ketmaydi. O'rta asrda keng tarqalgan “Rim hikoyalari” (XIII asr), “Novellino” (XIII asr) Jovanni Bokkachchoning “Dekameroni”, Navarra malikasi Margaritaning “Geptameron” hikoyalar to'plami, fransuz fabliolari, ayniqsa, Dante ijodi ham shular jumlasidandir.

Dante “Ziyofat” risolasida Sharq tafakkuriga xos bulgan yana bonuqa fikrlarni ham keltiradi: Alloh donishmandligining yana bir ko'rinishi eng oliy mo'jiza - insonni yaratishdir, bu fikr islomdagi insonga bo'lgan munosabatning aynan o'zidir. Yoki: “kimki, foyda, o'z manfaati uchun donishmandlik bilan do'stlashsa uni xaqiqiy faylasuf deb bulmaydi, bular yuristlar, shifokorlar va deyarlik hamma dindorlar, ular bilim olish uchun ilm bilan shug'ullanmaydilar, balki pul topish yoki mansabga ega bulish uchun shugullanadilar”²⁸.

Yahudiylarning buyuk olimi Moshe ibn Maymun yoki Maymonid o'zini buyuk Sharq olimlarining shogirdi hisoblagan va asarlarini arab tilida yozgan. She'rlarini qadimiy yahudiy tilida bitgan shoir Ibn Gabirol (Aviçbron, 1021-1052) esa arab she'riyatining shartlilik xususiyatini uzlashtirib, aruz vaznida ijob etgan, yahudiycha muvashshaqlar, gazallar bitgan. U yaratgan she'rlar asosan arab she'riyatiga taqlid edi. Yahudiy shoirlari Ibn Gabirol an'anasini keyingi asrlarda ham davom ettirganlar.

Ushbu asarlar ichida biz “Ming bir kecha” asarining Sharq va G'arb adabiyotshunoslik sohalarida o'rganilishining qiyosiy yo'nalishlarini tahlil qilib chiqamiz.

“Ming bir kecha” majmuasi tarkibidagi epik syujetlar turkiy xalqlar folklori hamda yozma adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. “Ming bir kecha”ning qozoq folkloriga ko'rsatgan ta'siri masalasi S.Qasqabasov, A.Derbisaliyev²⁹, M.Salqinbaev³⁰, N.K.Jarmagambetov³¹, S.A.Tuleubaeva³² kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

28 Данте. Монархия. Малые произведения. М., 1968, с. 302. Данте. Пир, с. 181, 189.

29 Дербісәліев Э. “Мың бір түн” елінде / Очерктер, әңгімелер. - Алматы: Жалын, 1986. - 184 б.; Шу муаллиф. Араб әдебиеті (классикалық дәуір). - Алматы, 1982.

30 Салқынбаев М. “Мың бір түннің” генезисіне байланысты кейбір ойлар // Ақиқат. – Алматы, 2011. – №2. – С.66-70.

31 Жармагамбетов Н.К. Поэтическая трансформация сюжетов “Тысячи и одной ночи” и “Калилы и Димны” в казахской литературе XIX – начала XX в.: автореф. дисс... канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1985. – С.26.

32 Тулеубаева С.А. “Тысяча и одна ночь” в казахской фольклорной традиции (на примере казахского сказочного эпоса): Автореф. дисс. канд филол. наук. – Алматы, 2004.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



XVI asr mobaynida evropalik sayyohlar hamda savdogarlar o'z mamlakatlariidagi mahsulotlarini - hind ziravorlari, Xitoy ipaklari va ba'zi yapon narsalari bilan ayirboshlash maqsadida Osiyo xalqlari tomon yo'l olishdi. Dastavval ispaniyalik va portugaliyalik bo'lgan savdogarlar Sharq bozorida etakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa, so'ngra esa XVII asrning o'rtalariga kelib Gollandiyaning Iberiya yarim oroli savdogarlari bu borada o'zib ketishdi. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, inglizlik hamda franziyalik bo'lgan tijoratchilarning kuchli ta'siri ostida gollandlar ham savdodan siqib chiqariladi.

YUqorida aytilgan cavdogarlar o'zlarining sayohatlari mobaynida sehrlil Sharq ertaklari, dostonlari va hikoyalarini tinglab, unga bo'lgan qiziqishlari ham uyg'onadi hamda asta-sekin ularga mahliyo bo'lib kolishdi. Natijada esa, ingliz va franuz tijoratchilarining ong-u shuurida, qolaversa hayolot olamida ham butunlay o'zgacha to'ntarish yuz berib, yurtlariga bir dunyo taassurotlar bilan qaytishadi. Buyuk Britaniya Markaziy Evropadan umidini uzib, okean orti mamlakatlariiga ko'z tika boshladi. Bu paytga kelib esa, Angliyada yuksalishlar sur'ati jadallashgan edi. Inglizlar ustamonlik bilan o'zlarining azaliy dushmani Franziya kashf qilgan sharqona adabiyotlarni ham qo'lga kiritib, bu borada dovrug' ham qozonishadi.

Jan Antuan Gallanning 1704-1711 yillarda Franziyada "Les Mille et une Nuits" nomi ostida bosqichma-bosqich ko'rinishida chop etilgan "Ming bir kecha" arab ertaklari butun Evropa kitob ahlini o'zining sharqona xususiyatlari bilan maftun qilib qo'yadi.

Bu haqida franuz tarixchi-adabiyotshunos Pol Azar (Paul Hazard, 1878-1944) shunday so'zlagandi³³: "When Scheherazade began to recount her stories of the night, to unfold the infinite wealth of an imagination enriched with all the dreams of Araby, of Syria and the great Levant; when she began to tell of the manners and customs of the peoples of the East, their religious ceremonies, their domestic habits, the details of their dazzling and colourful existence; when she showed how mankind could be held and enthralled, not by abstruse intellectual ideas, nor by recondite reasoning, but by the charm of colours and the lure of fairy tales, all Europe was fain to stop and listen".

YUqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilib chiqdim³⁴: "Shaxrizoda o'zining tungi ertaklarini hikoya qilishni boshlar ekan, hayolining butun qismi bepayon kengliklari ega bo'lgan Arabiston, Suriya hamda Shom mamlakatlari bilan band edi; U Sharq xalqlarining fe'l-atvorlari va urf-odatlari, milliy an'analari, ularning diniy marosimlari, kundalik hayotidagi yumushlari, yorqin hamda rang-barang hayoti haqida so'zlashni boshlaganida; U qanday qilib insoniyatni hech qanday murakkab intellektual g'oyalarsiz yoki mavhum asoslarsiz maftun etishni namoyish qilib, ularni ertaklar olamiga shaydo qiladi. Buni butun Yevropa bajonidil tinglashadi".

33 Paul Hazard, The European Mind (1953), p. 363

34 Инглиз тилидан таржима қилиш муаллифники.